

O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH XALQARO TADQIQOTLARNING ASOSI SIFATIDA

UDK: 811.512.133

Ismadiyoro va Nafisaxon Ibroximjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Erkin tadqiqotchisi

nismadiyoro va1995@gmail.com, 99 930 95 13

Annotatsiya: Ushbu maqola “Milliy o‘quv dasturi”ga muvofiq yangi darsliklarda keltirilgan matnlar va mashqlar ustida ishlash uchun yangi metod va usullarni taqdim etadi. Shuningdek, maqolada hozirgi ta’lim mazmunidan kelib chiqib o‘quvchilarda o‘qib tushunish va gapirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi darslar tashkil etish metodikasi ochib berilgan. Keltirilgan yangi metodlar o‘quvchilarda matn bilan ishlay olish, uni o‘qib, tushunganlarini amalda qo‘llay olish uchun foydali bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro tadqiqotlar, Milliy dastur, faol o‘quvchi, PRO (preview, read, organize), PQR+E (parsing, question, rephrasing, extendning), matn ustida ishlash, o‘qish strategiyasi, darslik.

РАЗВИТИЕ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ КАК ОСНОВА МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Андижанский государственный педагогический институт, Исмадиева

Нафисахон Иброхимжон қизи, исследователь

nismadiyoro va1995@gmail.com, 99 930 95 13

Аннотация: В данной статье представлены новые приемы и приемы работы над текстами и упражнениями, представленными в новых учебниках в соответствии с Национальной учебной программой. Также в статье раскрывается методика организации занятий, служащих формированию у учащихся понимания прочитанного и разговорных навыков на основе текущего учебного содержания. Упомянутые новые методы будут полезны учащимся для того, чтобы они могли работать с текстом, уметь его читать и применять на практике то, что они понимают.

Ключевые слова: международные исследования, Национальная программа, активный читатель, PRO (просмотр, чтение, организация), PQR+E (разбор, вопрос, перефразирование, расширение), работа над текстом, стратегия чтения, учебник.

DEVELOPMENT OF READING LITERACY AS A BASIS OF INTERNATIONAL RESEARCH

Andijan State Pedagogical Institute, Ismadiyoro Nafisakhon Ibrakhimjon
kizi, researcher

nismadiyoro1995@gmail.com, 99 930 95 13

Abstract: This article presents new methods and methods for working on the texts and exercises presented in the new textbooks in accordance with the National Curriculum. Also, the article reveals the methodology of organizing lessons that serve to form students' reading comprehension and speaking skills based on the current educational content. The mentioned new methods will be useful for students to be able to work with the text, to be able to read it and apply what they understand in practice.

Keywords: international studies, National program, active reader, PRO (preview, read, organize), PQR+E (parsing, question, rephrasing, extending), working on the text, reading strategy, textbook.

KIRISH

Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 8- dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori Respublika xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida chiqarilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrda PF-5544-son "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmonida O'zbekiston Respublikasining

2030-yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifasi belgilangan.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida Milliy markaz tomonidan "Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash" qo'llanmasi ishlab chiqildi.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tomonidan "PISA-2018 o'qish savodxonligi qamrov doirasi" nomli qo'llanma nashr etildi.

A. Matkarimov "PISA xalqaro o'quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari" nomli ilmiy ishida maqolamizning asl mohiyatini ochib berishga qaratilgan yo'nalish o'z ifodasini topgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xalqaro baholash dasturlarida yuqori o'rinlarni egallash uchun ona tili darslarida ta'lim mazmunini o'zgartirish talab etilishi hisobga olinib, o'quvchilarda o'qish savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi faol o'qish jarayonini yuzaga chiqaruvchi strategiyalar tahlil qilindi. Ushbu metodlar darsliklarda keltirilgan matnlar asosida izohlab berildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli farmonida O'zbekiston Respublikasining 2030- yilga kelib "PISA" Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish belgilab qo'yilgan.[2] Ushbu qarorlar ijrosini ta'minlash o'qituvchilar oldiga yangi dars ishlanmalar, ushbu ishlanmalarda yangi metodlar qo'llash vazifasini yuklaydi. Ushbu jarayonlarni hisobga olib, metodik tavsiyalar ishlab chiqishni asosiy maqsad deb hisoblaymiz.

“Avvalo o‘quvchiga matnni qanday o‘qish kerakligini tushuntirish lozim. O‘qib tushunish garchi oddiy tuyulsa-da, shu jarayonda o‘quvchining tafakkur doirasi kengayadi, bilim va malakalari rivojlanadi” [3, 41]:

1. O‘quvchining boshi bir joyda turgan holda faqat ko‘z orqali matnni o‘qish uni tushunishga xizmat qiladi.
2. Matnni lablar bilan emas, balki ko‘z bilan o‘qing, lab bilan o‘qilgan matn ma’lum darajada tashqarida qoladi, agar ko‘z bilan o‘qilsa, o‘qish jarayonidagi miya ishtiroki yuqori bo‘ladi.
3. O‘qish jarayonida o‘qilayotgan manbaani ongda tasvirlash, matnni tushunib, eslab qolishda katta ahamiyatga ega.
4. O‘qish va uqish jarayoni ma’lumotni majburlab o‘qish vaziyatida paydo bo‘lmaydi, uni zavqlanib oqish kerak. Olayotgan bilimdan rohatlanish ko‘nikmasini hosil qilish kerak bo‘ladi.
5. Men ko‘prog‘ini tushuna olaman deb o‘qish talab etiladi va matnni o‘qishdan oldin o‘quv faoliyatidan maqsadni aniqlashtirish muhim.
6. O‘qish savodxonligini oshirish uchun har kuni, muntazam ravishda o‘qilsa, samarasi yuqori bo‘ladi.
7. Matn tarkibidagi tushunchalarni izohlab, o‘quvchi o‘ziga savol berishi va so‘ng unga javob topishi o‘qib tushunish jarayonini tezlashtiradi.
8. Oxirgi bosqichda matnni yana qayta o‘qing va shu paytda ma’lumotlarni pichirlab so‘zlash foydadan holi bo‘lmaydi.

Aynan o‘qib tushunish jarayoni mas’uliyatni talab etadi. Shu o‘rinda fin ta’limida javobgarlik tushunchasi yo‘qligi, har qanday ta’limiy jarayon faqat mas’uliyat bilan bo‘lishini ta’kidlash o‘rinlidir. Umuman olganda, o‘qib tushunish, o‘qish savodxonligi har qanday xalqaro tadqiqot turida asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini oshirish o‘qituvchilar oldiga qo‘yilayotgan xalqaro baholash dasturlarida ilg‘or 30 ta mamalakatlar qatoriga kirishishga erishishni bajarishda muhim bosqich hisoblanadi. Biz dars davomida maqolada izohi, qo‘llanish usullari keltirilgan metodlardan foydalanishimiz ko‘zlagan maqsadimiz uchun asos bo‘ladi.

O'qib tushunishda turli strategiyalardan foydalanish mumkin. O'qish savodxonligida PRO texnologiyasi ma'nosi shundan iboratki, preview- oldin ko'rib chiqmoq, read- o'qish, organize- uyushtirmoq kabilarni anglatadi.

Albatta, matnlar ichki tuzilishidan kelib chiqib bir necha satrlardan iborat bo'ladi. Aynan matnni to'la o'qishdan oldin har bir satr boshida keltirilgan birinchi gaplarni o'qish talab etiladi. Shundan so'ng matnning mazmuni yoki davomi haqida taxminiy mulohaza yuriting va shu yerda to'xtash kerak. Taxminiy fikrlarni yakunlab, matnni qunt bilan to'la o'qish lozim. Endi oldindan taxmin qilgan fikringiz haqiqiy matn bilan qanchalar aloqador, solishtirib ko'ring. Keyingi qadamda matnni o'qib bo'lgach, mavzu yuzasidan savollar tuziladi va savollarga javob topiladi. Har qanday matndan tushunchalar zanjirini hosil qilish mumkin, aynan shu jarayon oxirgi qadam bo'lib, bunda qo'shimcha ravishda "klaster", "tushunchalar zanjiri" texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, Iqlim o'zgarishining oqibatlari, Global iqlim o'zgarishining oqibatlari ko'psonli ixtiloflar va ommaviy ko'chishlarga ham sabab bo'ladi. Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi. Amaliy-tizimli tahlil xalqaro instituti olimlari o'tkazgan tadqiqot ilk bor iqlim o'zgarishi va ortib borayotgan ixtiloflar, shuningdek, tabiiy oqibatlar tufayli yuzaga kelayotgan ommaviy ko'chishlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib berdi. So'nggi vaqtlarga qadar olimlar iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo'layotganini isbotlash uchun o'ta qat'iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi. Mualliflar buning uchun bir qancha tadqiqotlarni umumlashtirib, yagona manzarani hosil qilishga intilgan.

Boshlanishiga ular 2006–2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so'rab bergan arizalar sonini o'rganib chiqdi. So'ng qochoqlarning asl vatanida ro'y bergan iqlim o'zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o'zgarishining asosiy ko'rsatkichi sifatida yog'ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi. Qurolli ziddiyatlarning soni va ko'lamiga esa Shvetsiyada joylashgan Uppsala universiteti 1946-yildan beri yuritib keladigan

qurolli inqirozlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasiga tayanib o'rganildi. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan ilmiy modelda qochqinlarning asl vatani va ular kelgan mamlakat orasidagi masofa, har ikkala davlatdagi aholi soni, ulardagi siyosiy vaziyat, etnik va diniy guruhlar hamda boshqa omillar hisobga olindi.


“Pirovardida tadqiqot natijalari 2006–2015-yillar davomida iqlim o'zgarishi migratsiya darajasi va yo'nalishiga katta ta'sir etganini ko'rsatdi. Kuchli qurg'oqchiliklar esa mavjud qurolli ziddiyatlarni yanada kuchaytirgani, qurbonlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lgani aniqlandi”. [4, 35]

Matn ustida ishlash va uni tushunishda o'qituvchi tomonidan har bir satr boshidagi birinchi gap o'qib eshittiriladi. O'quvchilardan ushbu gapning davomi qanday bo'lishi haqidagi farazlarni keltirish so'raladi. Ma'lum fikrlar tinglangach o'quvchilarga dasrlikdagi matnni to'la o'qish topshirig'i beriladi. O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach savollar tuzadilar. Savollar taxminan shunday turd abo'lishi mumkin:

1. Global isishning ta'siri nimalarda namoyon bo'lmoqda?
2. Iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasida qanday bog'liklar bor?

3. Iqlim o'zgarishining muhim ko'rsatkichlari qaysilar? kabi. O'quvchilar tomonidan tuzilgan va o'rtaga tashlangan savollar ularda o'qib tushunishni tezlashtiradi. Oxirgi bosqichda matndagi ahamiyatli ma'lumotlar tartibga solinadi va tushunchalar zanjiri hosil qilinadi. Jumladan,

1-rasm. Tushunchalar zanjiri.



O'qish savodxonligini oshirishda PQR+E texnologiyasi ham juda qiziqarli va foydali metod, ushbu metodning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, bu metod orqali o'quvchilar matnni ham o'qib tushunish, ham og'zaki nutqni rivojlantirish

mumkin bo‘ladi. Parsing (parchalash), question (savol), rephrasing (qayta qurish) va extendning (kengaytirish) tushunchalari qismlarga bo‘lish, savollar bilan ishlash, matnni sodda holda qayta bayon etish va shu asosida ma’lumotlarni kengaytirib aytib bera olishni nazarda tutadi. Bunda birinchi bosqish matndagi qiyin, murakkab va uzun gaplar o‘z tushunchalarini saqlagan holda sodda gaplarga aylantiriladi. Ikkinchi bosqich, gaplar qisqartirilayotganda qaysi ma’lumotga qarab bo‘lingani bo‘yicha o‘zaro savol beriladi. Savolga javoblar ayni vaqtda berib boriladi. Bilamizki, matnlar turlariga yoki mavzusiga ko‘ra qiyin so‘zlardan ham iborat bo‘ladi. Aynan mana shu ma’nosi qiyin, tushunilishi uchun izoh talab etiladigan so‘zlarni oson va barcha uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlarga almashtirish kerak bo‘ladi. Bu bosqich o‘qib tushunishni osonlashtiradi. Oxirgi bosqich shuki, yuqoridagi bosqichlardan kelib chiqib matn to‘la va kengaygan holda qayta bayon etiladi. Kengaytirilgan matn boshqa o‘quvchilarga qara aytib beriladi. Ushbu jarayon jonli holda amalga oshirilsa, samaradorligi ortadi.

“Yodgorning bobosi ham, buvisi ham pensiyaga chiqqan.Ular ishlamasa ham, har oyda pul olishadi. Yodgor esa bunga sira tushunmaydi. “Qanday qilib odamlar ishlamasa ham, maosh olishlari mumkin?”

Bir vaqtlar Yodgorning bobosi avtomobil zavodida muhandis, buvisi esa maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Ular keksalikda mehnat qilib pul topish qiyin ekanini yaxshi bilar edi. Chunki odam qariganida tez charchaydigan bo‘lib qoladi. Shu sababli Yodgorning bobosi va buvisi yoshlikda ko‘p mehnat qilib, o‘z vaqtida daromad soliqlarini to‘lab borishgan. Boshqacha aytganda, ular har oyda to‘lab brogan soliqlari hisobidan pensiya jamg‘armasi shakllantirilgan. Kishining mehnat faoliyati uzoq bo‘lsa, unga to‘lanadigan pensiya miqdori ham ko‘p bo‘ladi. Yodgorning bobosi 60 yoshda, buvisi esa 55 yoshda ishdan bo‘shab, shu yildan pebsiyaga chiqqanlar. O‘shanda boboning mehnat faoliyati 35, buviniki esa 30 yilga teng edi.

Endi tasavvur qiling, bobo 5 million so‘m maosh to‘lanadigan korxonoda ishlagan. Har oyda maoshining 12 foizini soliq sifatida ushlab qolingan. Bu 600000 so‘m degani.

$$35 \cdot 12 = 420 \text{ oy.}$$

$$420 \cdot 600000 = 252\,000\,000.$$

Ko‘rdingizmi, Yodgorning bobosi mehnat faoliyati davomida davlatga kattagina – 252 million so‘m soliq to‘lagan. O‘z vaqtida u kishi to‘lagan soliqlarni davlat qariyalarning nafaqasi va boshqa ko‘plab ijtimoiy ehtiyojlar uchun sarflagan. Demak, bobo ham pensiyaga chiqqanidan keyin boshqalar to‘layotgan soliqlar hisobidan nafaqa olib turishga haqli. Ijtimoiy adolat mana shunday bo‘ladi”. [5, 94]

Bunda murakkab gaplar soddalashtiriladi. Masalan, Yodgorning bobosi avtomobil zavodida muhandis bo‘lib ishlagan. Yodgorning buvisi o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Ular yoshlikda ko‘p mehnat qilgan. Vaqtida daromad solig‘ini to‘lashgan. Ularning soliqlaridan pensiya to‘plangan. Mehnat faoliyatining uzoqligi pensiya pulini ko‘paytiradi. Bobosi 35 yil ishlagan. Buvisi 30 yil ishlagan, kabi. Keying bosqich savollarga javob berishdan iborat. Soliqlar nega to‘lanadi? Pensiya uchun pullar qayerdan olinadi? Soliq maoshning qancha foiz miqdoridan olinadi? Navbatdagi bosqichda matn tarkibidagi so‘zlarga sinonimlar topiladi. Bu bosqich o‘quvchilarning so‘z boyligi oshiradi. Ular shunday bo‘lishi mumkin:

1-jadval

So‘z boyligi

Matndagi so‘zlar	Qo‘llash mumkin bo‘lgan so‘zlar
Maosh	Oylik
Pensiya	Nafaqa
Mehnat faoliyati	Ishlash davri
Daromad	Foyda
Ijtimoiy adolat	Ijtimoiy tenglik

Ushbu metodning oxirgi bosqichida matn kengaygan holda to‘la aytib berilishi kerak bo‘ladi.

Xulosa

Yangilangan ta'lim mazmunini o'quvchilarga singdirish, eng avvalo, ona tili fanini o'qitish jarayonini to'g'ri tashkillashtirishdan boshlanadi. Matnni o'qib tushunish ko'nikmasini egallagan o'quvchigina boshqa fanlardagi topshiriqlarni bajara olishi mumkin. Bunday muhitni shakllantirish esa yangi ta'lim texnologiyalarni darslarda qo'llashni taqozo etadi. Shuni inobatga olgan holda, keltirilgan metodlardan unumli foydalanish, yangilarini ishlab chiqish pedagoglar oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son "2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" farmoni. <https://lex.uz/docs/-3913188>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5712- sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
3. Neil Anderson. Active skills for reading: 1,2,3. 2013, 2008, 2003 National Geographic Learning, a part of (engage Learning. 41-bet
4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M... Ona tili darslik, 6-sinf, 2022. 35-bet
5. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M... Ona tili darslik, 7-sinf, 2022. 94-bet
6. Xalqaro tadqiqotlar (jurnal). https://uz.wikiaro.ru/wiki/International_Studies
7. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash (Ona tii va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Ta'lim inspeksiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –Toshkent, 2019-yil.
8. PISA- 2018 o'qish savodxonligi qamrov doirasi. "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi" TOSHKENT — 2021

9. Matkarimov A. “PISA” xalqaro o‘quvchilarning savodxonligini baholash tadqiqotining rivojlanish bosqichlari, maqsad va vazifalari. “Ta’lim texnologiyalari” dan.
10. Xalqaro tadqiqotlar (jurnal). https://uz.wikiaro.ru/wiki/International_Studies